



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	


Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MASALALARI



Soydavletova Sohiba Abduganiyevna
 Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
 Namangan filiali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hamda amaliy pedagogik shart-sharoitlari keng tahlil qilingan. Bolalikning ilk bosqichida empatiya, hamkorlik, bag'rikenglik, nizolarni konstruktiv hal etish, muloqot madaniyati va madaniy xilma-xillikka hurmat kabi kompetensiyalarning shakllanishi keyingi ijtimoiy hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tengdoshlar muhiti, pedagog shaxsi hamda raqamli axborot muhitining tolerantlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar, insonparvarlik, jamoaviylik va o'zaro hurmat tamoyillarini maktabgacha ta'lim mazmuniga integratsiya qilishning ustuvor ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: tolerantlik madaniyati, maktabgacha ta'lim, empatiya, ijtimoiylashuv, bag'rikenglik, bola psixologiyasi, inkluziv ta'lim, axloqiy tarbiya, muloqot madaniyati, pedagogik muhit.

Abstract: The theoretical and methodological foundations, socio-psychological mechanisms, and practical pedagogical conditions for developing a culture of tolerance in preschool children are comprehensively analyzed. It is substantiated that the formation of such competencies as empathy, cooperation, tolerance, constructive conflict resolution, communication culture, and respect for cultural diversity at the early stage of childhood directly influences the quality of a child's future social life. Based on the studies of foreign and national scholars, the role of the family, preschool educational institutions, peer environment, teacher personality, and digital information space in shaping a culture of tolerance is revealed. In addition, the priority importance of integrating national values, humanism, collectivism, and the principles of mutual respect into the content of preschool education in the context of Uzbekistan is scientifically justified.

Key words: culture of tolerance, preschool education, empathy, socialization, tolerance, child psychology, inclusive education, moral education, communication culture, pedagogical environment.

Аннотация: Теоретико-методологические основы, социально-психологические механизмы и практические педагогические условия формирования культуры толерантности у детей дошкольного возраста всесторонне проанализированы. Обосновано, что развитие на раннем этапе детства таких компетенций, как эмпатия, сотрудничество, терпимость, конструктивное разрешение конфликтов, культура общения и уважение к культурному многообразию, оказывает непосредственное влияние на качество дальнейшей социальной жизни ребёнка. На основе исследований зарубежных и отечественных учёных раскрыта роль семьи, дошкольной образовательной организации, среды сверстников, личности педагога, а также цифрового информационного пространства в формировании культуры толерантности. Кроме того, научно обоснована приоритетная значимость интеграции национальных ценностей, гуманизма, коллективизма и принципов взаимного уважения в содержание дошкольного образования в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: культура толерантности, дошкольное образование, эмпатия, социализация, терпимость, психология ребёнка, инклюзивное образование, нравственное воспитание, культура общения, педагогическая среда.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotida madaniy xilma-xillikning kengayishi, axborot almashinuvining jadalla-shishi, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi insonlarda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va muloqot madaniyatini shakllantirish masalasini ustuvor vazifalar qatoriga olib chiqmoqda. Ayniqsa, shaxsning asosiy axloqiy qarashlari, munosabat uslubi va ijtimoiy xulq-atvor modellari bolalikning ilk bosqichlarida qaror topishini hisobga olganda, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor

qaratish zarur. Chunki aynan shu davrda bola atrofida qilargalarga munosabat bildirish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, hissiyotlarni boshqarish va umumiy qoidalarga amal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni egallaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida nafaqat bilimli, balki jamoada ishlay oladigan, boshqalar fikrini tinglaydigan, farqlarni tabiiy qabul qiladigan va nizolarni tinch yo'l bilan hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bu maqsadga erishish esa bolada erta yoshdanoq empatiya, hamdardlik, hamkorlik va bag'rikenglik sifatlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Agar ushbu sifatlar o'z vaqtida shakllantirilmasa, keyingi bosqichlarda tajovuzkorlik, murosasizlik, muloqot qiyinchiliklari va ijtimoiy moslashuv muammolari kuzatilishi mumkin.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish ham mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Turli imkoniyat va xususiyatlarga ega bolalarning bir muhitda tarbiyalanishi pedagogdan yuqori darajadagi psixologik kompetentlikni, har bir bolaga individual yondashuvni hamda sog'lom ijtimoiy muhit yaratishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sifati hamda kelajak avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini qaror toptirish kelajakdagi barqaror jamiyat, sog'lom muloqot muhiti va ijtimoiy hamjihatlikning strategik omili hisoblanadi.

Tolerantlik tushunchasi ko'p qirrali ilmiy kategoriya bo'lib, u faqat sabr-toqat yoki boshqalarga nisbatan befarq munosabatni anglatmaydi. YUNESKOning "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi"da tolerantlik inson huquqlari, erkinliklari, madaniy xilma-xillik va shaxsiy qadr-qimmatni hurmat qilishga asoslangan faol ijtimoiy pozitsiya sifatida ta'riflanadi ^[1]. Demak, tolerantlik – bu shaxsning boshqalar fikri, ehtiyoji, madaniy xususiyati va individual farqlarini qabul qilishga tayyorligi, nizolarni zo'ravonliksiz hal qilish qobiliyati hamda muloqotga ochiqligidir. Maktabgacha yosh bosqichida ushbu sifatlar tayyor nazariy bilim sifatida emas, balki hissiy tajriba, ijobiy munosabat va ijtimoiy o'yinlar jarayonida shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilgan.

L.S. Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanishini ta'kidlab, tarbiya jarayonida ijtimoiy munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi ^[1]. Olimning fikricha, bolaning atrofida emosional va axloqiy muhit keyinchalik uning ichki qadriyatlariga aylanadi. Shu bois maktabgacha yosh davrida bag'rikenglik va hamkorlik muhitini yaratish tolerantlik madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Jan Piaje bolalarning axloqiy tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy asoslagan hamda kichik yoshdagi bolalarda qoidalarga munosabat va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarini tahlil qilgan ^[2].

A. Bandura esa ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali bolalar kattalar va tengdoshlar xatti-harakatlarini kuza-tish hamda ularga taqlid qilish asosida ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishini izohlaydi ^[3].

Ushbu yondashuvlar tolerantlik madaniyatini shakllantirishda pedagog va ota-onaning shaxsiy namunasi muhim pedagogik vosita ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda empatiya va hissiy intellekt tolerantlikning asosiy psixologik komponentlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

D. Goleman hissiy intellekt nazariyasida boshqalar hissiyotini anglash va ularga mos munosabat bildirish ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omili ekanini qayd etadi ^[4].

Gordon Olport esa turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik va ijobiy muloqot salbiy stereotiplarni kamay-tirishini ilmiy jihatdan asoslagan ^[5].

Bu qarashlar maktabgacha ta'lim muhitida jamoaviy o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va hamkorlikka asoslangan faoliyatlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston olimlari ham tolerantlik, muloqot madaniyati va milliy qadriyatlar masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

N. Mahmudov til madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi ekanini ta'kid-laydi ^[6].

A. Nurmonov til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik orqali insonning boshqalarga munosabati uning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi ^[7].

Sh. Rahmatullayev esa muloqot madaniyati shaxslararo hurmat va bag'rikenglik muhitini shakllantirishda muhim omil ekanini qayd etadi ^[8].

Mazkur ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim jarayonida tolerantlik madaniyatini milliy va umuminsoniy qadri-yatlar asosida rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda kompleks va interdissiplinar yondashuv asos qilib olindi. Jumladan, tizimli yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy usul yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning mazkur muammoga doir nazariy qarashlari, ilmiy konsepsiyalari hamda amaliy tajribalari solishtirildi. Manbashunoslik va kontent-tahlil usullari asosida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Shuningdek, psixologik-pedagogik tahlil orqali maktabgacha yosh davrida empatiya, hamkorlik, muloqot madaniyati va bag'rikenglik sifatlarining rivojlanish xususiyatlari ochib berildi. Umumlashtirish va interpretatsiya usullari asosida tadqiqot natijalari tizimlashtirilib, amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv muammoning nazariy asoslarini chuqur yoritish, uning amaliy ahamiyatini belgilash hamda maktabgacha ta'lim tizimi uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, bolaning har qanday yuqori psixik funksiyasi dastlab ijtimoiy munosabatlarda paydo bo'ladi, keyinchalik esa ichki psixologik xususiyatga aylanadi [2]. Mazkur nazariya tolerantlik madaniyatini shakllantirish uchun fundamental ahamiyatga ega. Agar bola kundalik hayotda o'zaro hurmat, adolat, mehr-oqibat va bag'rikenglik muhitida yashasa, ushbu munosabatlar keyinchalik uning ichki qadriyatiga aylanadi. Shuning uchun tolerantlikni bolaga alohida mavzu sifatida tushuntirishdan ko'ra, uni tarbiya muhitiga singdirish samaraliroqdir. Pedagogning muloyim muomalasi, tengdoshlar bilan hamkorlikka asoslangan o'yinlar, guruhdagi emosional xavfsiz muhit va ota-onalarning ijobiy namunasi ushbu jarayonning asosiy shartlari hisoblanadi.

Jan Piaje bolalarning axloqiy tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini tahlil qilib, kichik yoshda bolalar qoidalarni tashqi majburiyat sifatida qabul qilishini, keyinchalik esa o'zaro kelishuv, adolat va hamkorlik mezonlarini anglay boshlashini ko'rsatgan [3]. Bu esa maktabgacha ta'lim jarayonida tolerantlikni quruq nasihat emas, balki amaliy ijtimoiy tajriba orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, o'yinchoqni navbat bilan ishlatish, sherigiga yordam berish, boshqalar fikrini tinglash, guruhda qaror qabul qilish kabi vaziyatlar bolada bag'rikenglik va o'zaro hurmatning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar kattalar va tengdoshlar xulqini kuzatish, taqlid qilish hamda rag'batlantirish orqali ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi [4]. Demak, pedagog va ota-onalarning har bir harakati bola uchun tarbiya vositasidir. Agar kattalar boshqalarni hurmat qilsa, nizolarni tinch hal etsa, farqlarga bag'rikeng munosabatda bo'lsa, bolalar ham shu xulqni o'zlashtiradi. Aksincha, haqorat, kamsitish, tajovuzkorlik yoki murosasizlik muhitida o'sgan bolada intolerant reaksiyalar shakllanishi mumkin. Shu sababli tolerantlik madaniyatini tarbiyalashda shaxsiy namuna pedagogik ta'sirning eng kuchli mexanizmi hisoblanadi.

Zamonaviy psixologiyada tolerantlikning emosional komponenti sifatida empatiya alohida o'rin tutadi. D. Goulman hissiy intellekt nazariyasida boshqalar hissiyotini anglash va ularga mos munosabat bildirish ijtimoiy muvaffaqiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanini ta'kidlaydi [5].

Maktabgacha yoshda empatiyani rivojlantirish bolaning tolerantlik madaniyatini shakllantirishda markaziy ahamiyatga ega. Chunki boshqalar og'rig'ini his qila olgan, sherigining kayfiyatini tushungan bola tajovuzkorlikka kamroq moyil bo'ladi, ko'proq hamkorlik qiladi va ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik namoyon etadi. Shu maqsadda pedagoglar: "Qahramon hozir nimani his qilyapti?", "Do'stingiz xafa bo'lsa, nima qilasiz?" kabi savollardan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Gordon Olportning "aloqa gipotezasi"ga ko'ra, turli ijtimoiy guruh vakillari o'rtasida teng maqomli, ijobiy va hamkorlikka asoslangan muloqot salbiy stereotiplarni kamaytiradi [6]. Bu nazariyani maktabgacha ta'lim muhitiga tatbiq etganda, turli xarakter, qobiliyat va ijtimoiy tajribaga ega bolalarni umumiy maqsadga qaratilgan o'yin va faoliyatlarga jalb qilish tolerant munosabatlarni kuchaytiradi. Masalan, birgalikda sahna ko'rinishi tayyorlash, qurilish o'yinlari, guruh loyihalari yoki juftlikdagi topshiriqlar bolalarda o'zaro qabul qilish va hamjihatlikni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning *birinchi ijtimoiy-psixologik muammosi* – **bolalar egosentrizmining tabiiy yuqoriligidir**. Kichik yoshda bola voqelikni asosan o'z ehtiyoji va nuqtai nazaridan qabul qiladi. Shu sababli u sherigining xohishi, boshqalar ehtiyoji yoki umumiy manfaatni darhol tushunib yetmasligi mumkin. Bu holat o'yinchoqni bo'lishmaslik, navbat kutmaslik, "men birinchi" degan talablarda namoyon bo'ladi. Pedagogik vazifa bolani jazolash emas, balki uni boshqalar nuqtai nazarini tushunishga o'rgatishdan iborat.

Ikkinchi muhim muammo – **oilaviy muhit ta'siridir**. Oila bolaning birinchi ijtimoiy instituti bo'lib, u yerdagi munosabatlar keyingi xulq-atvor modeliga aylanadi. Agar oilada o'zaro hurmat, muloqot madaniyati, kechirim-

lilik va mehr muhiti ustun bo'lsa, bola ham shu uslubni qabul qiladi. Agar uyda tajovuz, kamsitish, doimiy janjal yoki salbiy stereotiplar mavjud bo'lsa, bolada intolerant munosabatlar shakllanishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan tizimli ishlash, maslahatlar, treninglar va psixologik seminarlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi muammo – raqamli axborot muhiti ta'siridir. Zamonaviy bolalar multfilmlar, mobil ilovalar, video kontent va internet muhiti ta'sirida o'smoqda. Agar ushbu muhitda zo'ravonlik, masxara, tajovuz yoki yot g'oyalardan ustun bo'lsa, bolaning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois media savodxonlik elementlarini ota-onalar va pedagoglar faoliyatiga kiritish, bolalar uchun ijobiy mazmundagi kontentni tanlash, jonli muloqot va ijtimoiy o'yinlarni ko'paytirish zarur.

O'zbekiston olimlari ham mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etganlar. N. Mahmudov ta'lim jarayonida til madaniyati, milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish shaxs tarbiyasining muhim sharti ekanini ta'kidlaydi [7].

A. Nurmonov til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib, insonning boshqalarga munosabati uning ma'naviy tajribasi bilan belgilanishini qayd etadi [8].

Sh. Rahmatullayev esa muloqot madaniyati orqali shaxslararo hurmat muhiti qaror topishini ta'kidlaydi [9].

Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida tolerantlik madaniyatini milliy qadriyatlar – mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, qo'shnichilik, hamjihatlik va bag'rikenglik an'analari asosida shakllantirish ayniqsa samaralidir.

Pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan tolerantlik madaniyatini rivojlantirishda roli o'yinlar, ertak terapiyasi, badiiy adabiyot bilan ishlash, kooperativ o'yinlar, vaziyatli suhbatlar va inklyuziv mashg'ulotlar yuqori natija beradi. Ertak qahramonlari orqali yaxshilik va yomonlikni ajratish, bir-biriga yordam berish, kechirish, do'stlik, adolat kabi tushunchalar bolalar ongiga tabiiy yo'l bilan singadi. Inklyuziv guruhlarda esa turli imkoniyatga ega bolalar bilan hamkorlik qilish orqali tabiiy bag'rikenglik va qabul qilish madaniyati shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tolerant muhit yaratish uchun pedagoglar quyidagi psixologik shartlarga amal qilishlari lozim:

- har bir bolaning qadr-qimmatini tan olish;
- uning fikrini tinglash;
- kamsitishga yo'l qo'yimaslik;
- guruhda xavfsiz emosional muhit yaratish;
- nizolarni jazo orqali emas, muloqot orqali hal qilish;
- hamkorlikka asoslangan faoliyatlarni ko'paytirish;
- oila bilan muntazam hamkorlik qilish.

Ushbu omillar bolada ijtimoiy ishonch, ochiq muloqot va boshqalarga nisbatan hurmat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Shuningdek, tolerantlik madaniyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish ham muhimdir. Bularga quyidagilar kiradi: bolaning tengdoshlar bilan hamkorlik qilish darajasi, o'yinchoq va resurslarni bo'lishishga tayyorligi, boshqalar fikrini qabul qilish qobiliyati, nizoli vaziyatda muloqotga kirishishi, tajovuzkor reaksiyalar sonining kamayishi hamda empatik munosabatlarning namoyon bo'lishi. Bu mezonlar asosida pedagog boladagi ijobiy dinamikani kuzatib borishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda jahon miqyosida ijtimoiy munosabatlar tizimida kechayotgan transformatsiyalar, aholi mobilligining ortishi, madaniy aloqalarning kengayishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi ta'lim mazmuniga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda ta'lim muassasalaridan faqat akademik bilim berish emas, balki ijtimoiy hamkorlikka tayyor, muloqot madaniyatiga ega, turli fikr va qarashlarni hurmat qiladigan shaxsni tarbiyalash talab etilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda maktabgacha yosh bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki inson shaxsining asosiy qadriyat yo'nalishlari, emosional javob reaksiyalari va ijtimoiy xulq-atvor modellari aynan shu davrda shakllanadi.

Neyropsixologik tadqiqotlarda bola hayotining dastlabki besh yilida miya rivojlanishining eng intensiv bosqichi kechishi, neyron bog'lanishlarning jadal sur'atlarda shakllanishi qayd etilgan bo'lib, bu holat erta pedagogik ta'sirning yuqori samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [10]. Demak, bag'rikenglik, hammadlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni erta bosqichda rivojlantirish keyingi shaxsiy kamolot uchun mustahkam asos yaratadi.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari ham mazkur yo'nalishning strategik ahamiyatini ko'rsatadi. YUNESKOning global monitoring hisobotlarida ta'lim muassasalarida xavfsiz, inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilgan holatlarda bolalarning ishtirok faolligi, ijtimoiy moslashuvi va emosional barqarorligi yuqori bo'lishi ta'kidlangan [11].



YUNISEFning bolalar farovonligiga doir tahlillarida esa ijobiy munosabatlar muhitida tarbiyalangan bolalarda tajovuzkor xulq-atvor holatlari kamroq uchrashi va tengdoshlar bilan munosabat sifati yuqoriroq bo'lishi qayd etilgan ^[12]. Bu ko'rsatkichlar maktabgacha ta'lim muassasalarida tolerantlikka asoslangan muhit yaratishni tarbiyaning qo'shimcha emas, balki tizimli qismi sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida ijtimoiy-emosional ko'nikmalari rivojlangan bolalar keyingi ta'lim bosqichlarida yuqori motivatsiya, yaxshi o'zlashtirish va past darajadagi intizomiy muammolarni namoyon etishi ko'rsatilgan ^[13]. Ayniqsa, hamkorlik qilish, o'z hissiyotlarini boshqarish, boshqalar nuqtai nazarini qabul qilish va murosaga kelish qobiliyatlari maktab muhitiga moslashuvning muhim indikatorlari sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha ta'limda tolerantlik madaniyatini shakllantirish keyingi bosqichlardagi ta'lim samaradorligini oshiruvchi profilaktik omil vazifasini bajaradi. Bu yerda tolerantlikni faqat axloqiy tushuncha sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy kompetensiyalar tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham mazkur masalani yanada muhimlashtirmoqda. Ochiq statistik manbalarga ko'ra, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovi keskin oshgan va muassasalarga jalb etilgan bolalar soni sezilarli darajada ko'paygan ^[14]. Bu holat turli ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya uslubi, madaniy tajriba va individual xususiyatlarga ega bolalarning bir makonda o'zaro munosabatga kirishishini anglatadi.

Shuning uchun guruh ichida resurslarni bo'lishish, navbat kutish, kelishuvga erishish, boshqalar fikrini eshitish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni maqsadli rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifasiga aylanmoqda. Agar bu jarayon nazardan chetda qolsa, guruh ichida nizolar, yakkalanish, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy passivlik holatlari ko'payishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, tolerantlik madaniyatining asosiy mexanizmi empatiya va desentratsiya jarayonlari bilan bog'liq. J. Piaje ta'limotida bolaning egosentrik tafakkurdan boshqalar nuqtai nazarini anglash bosqichiga o'tishi ijtimoiy rivojlanishning muhim mezon sifatida ko'rsatiladi ^[15].

Demak, maktabgacha yoshda bolaning "faqat men" pozitsiyasidan "boshqalar ham bor" degan ijtimoiy anglash darajasiga ko'tarilishi maxsus tashkil etilgan pedagogik muhitni talab qiladi. Buning uchun rolli o'yinlar, jamoaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish va hissiy mulohazaga undaydigan suhbatlar samarali hisoblanadi. Bunday faoliyatlar bolaning kognitiv rivojlanishi bilan birga, axloqiy refleksiyasini ham kuchaytiradi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga muvofiq, bolalar xulq-atvor modellarini kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradi ^[16].

Shu sababli pedagog va ota-onalarning muloqot madaniyati, nizoli vaziyatlardagi munosabati, farqlarga nisbatan qarashi bola uchun real tarbiya vositasi hisoblanadi. Agar kattalar tomonidan hurmat, sabr, kechirimlilik va konstruktiv muloqot namoyon etilsa, bola ham shunday munosabatni o'zlashtiradi. Aksincha, haqorat, keskinlik, stereotip yondashuv va tajovuzkor reaksiyalar intolerant xulq-atvorning shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Bu esa pedagog kadrlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishni strategik vazifa sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish nafaqat axloqiy muhitni yaxshilaydi, balki umumiy ta'lim samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. AQSh va Yevropa davlatlarida o'tkazilgan meta-tahlillarda ijtimoiy-emosional ta'lim dasturlarida qatnashgan bolalarning akademik ko'rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan o'rtacha yuqori bo'lgani qayd etilgan ^[17]. Bu holat bag'rikenglik, hamkorlik va o'zini boshqarish qobiliyatlarining kognitiv faollikni ham qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi. Demak, mazkur yo'nalishni "tarbiya" va "ta'lim"ga ajratib qarash emas, balki ularning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish shaxs kamolotining erta bosqichida hal etiluvchi strategik pedagogik-psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning atrof-dagilarga munosabati, muloqot uslubi, hissiy javob reaksiyalari, hamkorlikka moyilligi va axloqiy qarashlarining dastlabki asoslari qaror topadi. Shu bois bag'rikenglik, o'zaro hurmat, empatiya, muros va jamoaviylik kabi sifatlarning erta shakllantirilishi keyingi ta'lim bosqichlari hamda ijtimoiy hayot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tolerantlik madaniyati tabiiy ravishda o'z-o'zidan shakllanmasligini, balki maxsus tashkil etilgan ijtimoiy muhit, maqsadli pedagogik ta'sir, oilaviy qo'llab-quvvatlash va ijobiy muloqot tajribasi orqali qaror topishini tasdiqlaydi. Bolaning tengdoshlar bilan munosabati, pedagogning shaxsiy namunasi, jamoaviy o'yinlar, inklyuziv faoliyatlar, ertak va rolli mashg'ulotlar mazkur jarayonning samarali mexanizmlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, raqamli muhit ta'siri, oilaviy munosabatlar sifati va pedagogning psixologik kompetentligi kabi omillar natijadorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda maktabgacha ta'lim muassasalarida tolerantlikka yo'naltirilgan tarbiyaviy muhitni tizimli tashkil etish, pedagog kadrlarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga uyg'un integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Natijada jamiyatda ijtimoiy ishonch, madaniy muloqot va hamjihatlikni mustahkamlay oladigan, ochiq fikrli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. – Paris, 1995. – 5-b.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 57-b.
3. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965. – 196-b.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – New Jersey: Prentice Hall, 1977. – 22-b.
5. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995. – 103-b.
6. Allport G. The Nature of Prejudice. – Cambridge: Addison-Wesley, 1954. – 281-b.
7. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 84-b.
8. Nurmonov A. Tilshunoslik va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2008. – 66-b.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2009. – 112-b.
10. Shonkoff J., Phillips D. From Neurons to Neighborhoods: The Science of Early Childhood Development. – Washington: National Academy Press, 2000. – 41-b.
11. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris, 2020. – 73-b.
12. UNICEF. The State of the World's Children. – New York, 2021. – 18-b.
13. OECD. Skills for Social Progress. – Paris, 2015. – 96-b.
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi statistik ma'lumotlari. – 2023. – 12-b.
15. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965. – 211-b.
16. Bandura A. Social Learning Theory. – New Jersey: Prentice Hall, 1977. – 27-b.
17. Durlak J. et al. The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning. – Chicago, 2011. – 14-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.